tahlil uchun aynan qanday jihatlar – sujet tuzilishi, qahramon arxetiplari, jinoyat sabablari asos bo‘lishi kerakligi avvaldan belgilanishi zarur.

O‘zbek adabiyotshunoslari qayd etishganidek, “qiyoslash obyektlari tanlovi tasodifiy bo‘lmay, sohadagi mavjud bilimlar zairasiga tayangan holga amalga oshiriladi. Bunda deduksiya metodiga tayaniladi. Qiyoslash jarayonining o‘zi induktiv xarakterga egadir” [2]. Bu borada amaliy misol sifatida Agata Kristining “The Murder of Roger Ackroyd” asari va Tohir Malikning “Shaytanat” romanini qiyoslash mumkin, chunki ikkalasida ham murakkab jinoyat, tergov jarayoni va jinoyatchining asl shaxsini aniqlash markaziy syujetni tashkil qiladi.

Kriminal adabiyotning taraqqiyot bosqichlarini davrlar bo‘yicha ajratish, ularni mualliflarning adabiy faoliyati bilan bog‘lash orqali aniqlik kiritiladi. Masalan, Kristi romanlari XX asr boshlarida klassik detektiv janrining yuksalish davrini ifodalasa, Grisham asarlari postmodern huquqiy trillerlar davrini aks ettiradi. O‘zbek adabiyotida esa Tohir Malik 1980–1990-yillardagi ijtimoiy o‘zgarishlar fonida jinoyatga yondashadi. Shunday qilib, har bir muallif o‘z davrining jinoyat, adolat va axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi.

Fikrimizni yanada aniqroq bayon etsak, A.Kristida bu 1920-yillarda Angliyadagi hayot – postimperial, jazolash va adolat yondashuvi aks etsa, Tohir Malikning 1990-yillarda yaratilgan asarlarida O‘zbekistonda – mustaqillik boshlanishi yoki sobiq sho‘rolar tuzumi davridagi turli jinoiy guruhlar avj olgan payt tasvirlari gavdalantiriladi. Bu yondashuv asarlarning ijtimoiy kontekstini tushunishga yordam beradi.

D.Dyurishinning metodologik komponentlari kriminal adabiyotning qiyosiy-tipologik tahliliga ham to‘liq tatbiq etilishi mumkin. Sujet strukturasidan tortib qahramonlarning tipologiyasigacha, madaniyatlararo retseptsiya va davriylik masalalarigacha bo‘lgan har bir omil jinoyat adabiyotini chuqur tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday yondashuvlar orqali kriminal janrning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, kriminal badiiy asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish ularning janr xususiyatlarini chuqur anglash, turli adabiyotlarda jinoyat va adolat muammosining badiiy talqinini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali o‘zbek va jahon adabiyotidagi kriminal motivlar, syujet qurilishi, obrazlar tizimi hamda axloqiy-estetik masalalarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi. Natijada kriminal janrning milliy adabiyotdagi o‘rni, ijtimoiy-badiiy ahamiyati va ma’naviy-estetik vazifasi ilmiy asosda yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. T., “Akademnashr”, 2020.
(2). Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. T., “Akademnashr”, 2019.
(3). Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. М., “Прогресс”, 1979, с. 183.

Alqarov Nazarbek Alisher o‘g‘li (University of Innovation Technologies o‘qituvchisi; alkarovnazarbek@gmail.com)

HAYVONLAR OBRAZI VA UNING BADIIY ADABIYOTDA RAMZLASHTIRILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy adabiyotda hayvon obrazlarining ramziy talqini va ularning estetik hamda madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. Biz tadqiqotda ot, bo‘ri va mushuk obrazlari misolida turli madaniyatlarda shakllangan ramziy ma’nolar, totemistik qarashlar va badiiy transformatsiyalar ochib berishga harakat qildik. Jahon va o‘zbek adabiyoti namunalariga tayangan holda, hayvon obrazlari inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi semantik birlik sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy obraz, ramz, totemizm, ot timsoli, bo‘ri obrazi, mushuk ramzi, madaniy semantika, folklor, mifologiya, psixologik talqin, estetik funksiya, adabiy transformatsiya.*

ОБРАЗЫ ЖИВОТНЫХ И ИХ СИМВОЛИЗАЦИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется символическое осмысление образов животных в художественной литературе, а также их эстетические и культурные функции. В исследовании на примере образов коня, волка и кошки предпринята попытка раскрыть символические значения, сформировавшиеся в различных культурах, тотемистические представления и художественные трансформации. На материале произведений мировой и узбекской литературы образы животных интерпретируются как семантические единицы, отражающие психологию человека, социальные отношения и нравственные ценности.*

Ключевые слова: *художественный образ, символ, тотемизм, образ коня, образ волка, образ кошки, культурная семантика, фольклор, мифология, психологическая интерпретация, эстетическая функция, художественная трансформация.*

ANIMAL IMAGERY AND ITS SYMBOLIC REPRESENTATION IN FICTION

Annotation. *In this article, the symbolic interpretation of animal images in fiction and their aesthetic and cultural functions are analyzed. In the study, using the images of the horse, wolf, and cat as examples, we attempt to reveal the symbolic meanings formed in different cultures, totemistic views, and artistic transformations. Based on examples from world and Uzbek literature, animal images are interpreted as semantic units that express human psychology, social relations, and moral values.*

Keywords: *artistic image, symbol, totemism, horse image, wolf image, cat symbol, cultural semantics, folklore, mythology, psychological interpretation, aesthetic function, literary transformation.*

Kirish. Adabiyot va san'at inson tafakkuri hamda ruhiy olamining ifodasi sifatida, avvalo, badiiy asar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asar esa voqelikni bevosita emas, balki turli obrazlar orqali aks ettiradi. Shu sababli unda ijodkorning hayotni qanday idrok etgani, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati, estetik qarashlari hamda kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oya va fikrlari mujassam bo'ladi. Ijodkor real hayotdan ilhom olgan holda uni badiiy qayta ishlaydi va obrazlar vositasida umumlashtiradi.

Jahon adabiyotshunosligida badiiy obrazlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ular orasida realistik, romantik, fantastik va ramziy obrazlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu obrazlar adabiy asarning mazmuni va badiiy qiymatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, obraz – timsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatsa, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan predmetlarni ifodalaydi.

Badiiy adabiyotda asar mazmunini boyitish va kitobxonni jalb etish maqsadida turli hayvon obrazlari va ularning nomlaridan keng foydalaniladi. Odatda, ayyor kishilar tulkiga, nodon yoki beparvo odamlar bo'riga, bir vaqtning o'zida ham ayyor, ham dono insonlar esa ilonga qiyos qilinadi. Hayotdan lazzatlanib, tashvishsiz yashaydiganlar esa ayiqqa o'xshatilib tasvirlanadi. Bu kabi hayvon timsollari asar matnida o'ziga xos badiiy, uslubiy va ramziy vazifa bajaradi.

Yozuvchining ishi nimadan iborat, u xayol qiladi, o'zining mushohadalari, taassurotlari, fikrlari va hayot tajribasini obrazlar, kartinalar va xarakterlarda mujassamlashtiradi. Darhaqiqat, yozuvchining ishi shunchaki voqealarni bayon qilish emas, balki hayotni badiiy tafakkur orqali qayta yaratishdir. Yozuvchi hayotni shunchaki ko'chirmaydi, balki uni badiiy qayta ishlaydi, umumlashtiradi va o'quvchiga ta'sir eta oladigan shaklga soladi.

Adabiyotlar tahlili. Qadim zamonlardan boshlab, hayvonlar inson tafakkurida nafaqat real hayotiy mavjudotlar, balki ramziy va madaniy timsollar sifatida ham mujassamlangan. Turli hayvonlar turli xususiyatlar, fazilatlar va insoniy his-tuyg'ular bilan bog'lanib, ular orqali jamiyatlar o'z qadriyatlari, e'tiqodlari va axloqiy me'yorlarini ifodalagan. Shu sababli hayvon obrazlari folklor, mifologiya va yozma adabiyotda muhim semantik yuklama bilan namoyon bo'ladi.

A.Tilavovning ta'kidlashicha, ot boshqa hayvonlardan egasiga sodiqligi, aqlliligi va nihoyat, o'zining noyob xislatlari bilan ajralib turadi [9]. Ot inson bilan chuqur psixologik va emotsional bog'lanish qila oladigan hayvonlardan biri hisoblanadi. U insonning ichki his-tuyg'ularini sezishi, egasining kayfiyati va holatini idrok etishi mumkin. Shu jihatlar ot obrazining adabiyotda do'stlik va vafodorlik timsoliga aylanishiga sabab bo'lgan.

Artur Vernon otning jamiyatdagi rivoji haqida urush va savdo, kontinental ekspansiya va sportning barcha sohalarida otsiz dunyoda insoniyat tarixi qanday rivojlanar edi, degan savolni ilgari suradi [12]. Bu fikr otning insoniyat sivilizatsiyasidagi strategik va funksional rolini ko'rsatadi hamda tarixiy jarayonlarni hayvon resurslari bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotshunos olim R.Lipets turk-mo'g'ul xalqlari dostonlaridagi ot obrazini o'rganar ekan, xalq eposlarida chavandoz va uning jangovar oti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik borligini, aqli, fidoyi va go'zal hayvonning epik qahramon hayotida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [4]. U bu munosabatlarni totemistik qarashlarga bog'lab talqin qiladi hamda epik ot obrazida arxaik an'analar va mifologik qatlamlar mavjudligini qayd etadi.

Mashhur etnograf va kulturolog E.Teylor totemizm va animizm ibtidoiy jamiyatlarning hayot falsafasi bo'lganini ta'kidlaydi [15]. Bu falsafa totem obrazida ifodalangan bo'lib, masalan, turkiy xalqlarda bunday totem bo'ri bo'lgan. Shu sababli bo'ri obrazi faqat hayvon sifatida emas, balki urug', nasl va himoya timsoli sifatida ham talqin qilingan.

Shuningdek, ko‘plab xalqlar mifologiyasida bo‘ri urush, jasorat va sardorlik bilan bog‘langan. Rim va Misr madaniyatlarida bo‘ri urush xudolari bilan aloqador timsol sifatida qaralgan. Yunonlarda Luperkaliya bayrami bo‘ri bilan bog‘liq poklanish va serhosillik marosimi sifatida e’tirof etilgan [14].

Mushuk obrazi bo‘yicha esa adabiyotshunoslikda uni sirli, mustaqil va inson ruhiyatiga yaqin timsol sifatida talqin qilish an’anasi shakllangan. XIX asr adabiyotida mushuk obrazi gotik va romantik estetikada alohida o‘rin egallab, noaniqlik va ichki qo‘rquv ramzi sifatida ishlatilgan.

Asosiy qism. Ot inson hayotida nafaqat transport vositasi yoki minadigan ulov sifatida qimmatli bo‘lgan, balki u turkiy va boshqa ko‘plab xalqlarning madaniy va ramziy tafakkurida sadoqat va vafo timsoli sifatida ham qadrlangan. Tadqiqotlarga ko‘ra, ot inson bilan emotsional aloqa o‘rnatishi va egasining holatini sezishi mumkin bo‘lgan hayvon sifatida baholanadi.

Ba’zi tarixiy va folkloriy manbalarda otlar egalariga shunchalik sadoqat bilan bog‘langanki, hatto egasi vafot etganida, o‘zi ham bir necha kun ichida yoki egasi qabri yonida hayotdan ko‘z yumgan holatlar qayd etiladi. Bu hodisalar antropologik va etnologik nuqtai nazardan inson va hayvon o‘rtasidagi hissiy aloqaning madaniy talqinini ko‘rsatadi.

Ot obrazining Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida muhim o‘rin egallashi Chingiz Aytmatovning “Jamila”, “Alvido, Gulsari”, “Birinchi muallim”, “Bo‘tako‘z” qissalari hamda Qulayotgan tog‘lar romanlari misolida yaqqol namoyon bo‘ladi [1]. Mazkur asarlarda ot insonning sodiq hamrohi, ichki kechinmalarining guvohi va ba’zan qahramon taqdirining ramziy ifodasi sifatida tasvirlanadi.

O‘zbek adabiyotida A.Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida xalqimizning ko‘p asrlik udumlaridan biri bo‘lgan uloq o‘yini tasviri orqali qahramonning chavandoz bo‘lish orzusi ochib beriladi [1]. Asarda uloq otlariga xos xalqona tasniflar va ot zotlari tilga olinib, yozuvchining otga bo‘lgan iliq munosabati seziladi.

Shukur Xolmirzayevning “Otning egasi” hikoyasida qorabayir ot haqidagi lavhalar orqali otning avlodlari ilgari qahramon otasiga xizmat qilgani va uni janglardan omon olib o‘tgani ta’kidlanadi [1]. Bu esa ot obrazining tarixiy xotira va nasliy sadoqat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

T.Murodning “Ot kishnagan oqshom” asarida esa qulun, toy, g‘o‘non, do‘non, baytal va ayg‘ir kabi ot turlarining aniq farqlanishi tasvirning hayotiyligini oshiradi va ot obrazining jonlantirilgan badiiy qiyofasini yaratadi.

Bo‘ri qadimdan turkiy xalqlarning totemi sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, u erkinlik, jasorat va kurash timsoli sifatida qaralgan. Ko‘k bo‘ri timsoli Ko‘k Tangri bilan bog‘lanib, xalqlar kelib chiqishi haqidagi afsonalarda muhim o‘rin egallagan [3].

Ko‘plab arxaik madaniyatlarda bo‘ri dushmanona obraz sifatida ham talqin etilgan. Bo‘ri va it yaqin qarindosh bo‘lgani sababli, qorong‘i tomon bo‘riga, yorug‘ tomon esa itga nisbat beriladi. Shu sababli bo‘ri ba’zan yovuzlik va xavf timsoli sifatida ham tasvirlanadi.

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida bo‘ri insonning ichki tabiatidagi zo‘ravonlik va qo‘rquv ramzi sifatida talqin qilinadi. Akbara obrazi orqali muallif jamiyatdagi agressiya va tabiat bilan inson o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

Ezopning Bo‘ri va it masalida bo‘ri tobelikka bo‘ysunmas, erkinlikni tanlovchi mavjudot sifatida tasvirlanib, inson xarakteridagi mustaqillik g‘oyasi ifodalanadi.

Mushuk obrazi XIX asr adabiyotida alohida ramziy ahamiyat kasb etgan. Edgar Allan Poning Qora mushuk hikoyasida mushuk vijdon azobi va yashirin jinoyat bilan bog‘liq ramziy vosita sifatida ishlatiladi.

Sharl Bodlerning “Mushuklar” she’rida mushuklar insondan ustun bo‘lgan, sirli va tush ko‘ra oladigan mavjudot sifatida talqin qilinadi [7].

Takashi Xiraidening “Osmondan kelgan mushuk” romanida mushuk inson hayotiga sokinlik, vaqtning o‘tkinchiligi va ichki uyg‘unlik timsoli sifatida kirib keladi [5].

O‘zbek adabiyotida mushuk obrazi maishiy detal sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, u qahramon ruhiy holatini aks ettiruvchi ramziy unsur vazifasini ham bajaradi.

Natijalar. Badiiy adabiyotda ot obrazi inson va hayvon o‘rtasidagi ruhiy, emotsional hamda psixologik bog‘liqlikni ochib beradi. Ot obrazi nafaqat inson faoliyatining amaliy hamrohi sifatida, balki uning ichki kechinmalari, sadoqat, ishonch va vafoning badiiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘ri obrazi adabiy va falsafiy talqinda erkinlikka intilish, mustaqil yashash va tabiat qonunlariga bo‘ysungan holda hayot kechirish g‘oyalarini mujassamlashtiradi. U hech qachon bo‘ysunishni qabul qilmaydigan, o‘z hududi va erkinligini har qanday sharoitda himoya qiladigan mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Mushuk obrazi jahon adabiyotida ko‘pincha insonning yolg‘izlikdagi hamrohi, ichki dunyo bilan muloqot qiluvchi kuzatuvchi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek adabiyotida esa mushuk obrazi ko‘proq sokinlik, iliqlik va maishiy muhitning jonlanishi timsoli sifatida ko‘rinadi.

Xulosa. Badiiy adabiyotda hayvon obrazining ramziy darajada talqin etilishi inson va hayvon o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu ramziylashuv orqali muallif inson va hayvon o‘rtasida shakllangan ruhiy, emotsional hamda psixologik bog‘liqlikni ochib beradi. Shuningdek, bo‘ri va mushuk obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, insonning ichki kechinmalari va axloqiy tanlovlari bilvosita, ammo ta’sirchan tarzda ifodalanadi. Shu sababli hayvon obrazlari adabiy matnda muhim semantik va estetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ашурова Ш.А. Инглиз адабиёти ва ўзбек адабиётида анималистика жанри хусусиятлари (Э.Сетон-Томпсон ва Н.Норқобилов ижоди мисолида). Фалс. докт. (PhD) дисс., Тошкент, 2020, 30-бет.

(2). Горький М. Адабиёт ҳақида. Тошкент, 1962, 10-бет.

(3). Худойбердиева М.А. Сравнительный этнолингвокультурологический анализ концепта «волк» в среднеазиатском информационном пространстве. Магистр. дисс., Джизак, 2023, 53 с.

(4). Липец Р. Образ батыра и его коня в тюрко-монгольском эпосе. М., “Наука”, 1984, 124 с.

(5). López E. Aquí hay gato encerrado: Intertextualidad entre Takashi Hiraide y Juan García Ponce. Enunciación. 2025, vol. 30, № 1, p. 45–60. DOI: 10.14483/22486798.22817.

(6). Ochilova N.O. Inglizzabon g‘arb va o‘zbek nasrida ot obrazi talqini (Seton Thompson, Anna Syuvell, Tog‘ay Murod, Turob To‘la asarlari asosida): filol. fan. bo‘yicha PhD diss., Buxoro, 2022, 26-bet.

(7). Poe E. Cuentos. Tarj. G.Martínez, D.Martín. Barcelona, Planeta, 2007.

(8).Rajabov E. Obraz tushunchasining badiiy talqini (“Haj daftari” misolida). Теоретические аспекты становления педагогических наук. 2025. № 4 (13), с. 28–32. URL: https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/98800

(9). Tilavov A. O‘zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Filol. fan. nomz. diss. Toshkent, 2000, 14-bet.

(10). Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2000, 1-жилд, 345-бет.

(11). Улджаева Ш. Тотем волка [электрон манба]. URL:https://sw-ke.facebook.com (мурожаат санаси: 20.01.2026).

(12). Wallner A. The role of fox, lynx and wolf in mythology. Workshop on Human Dimension in Large Carnivore Conservation: Contributions to the Workshop, 26.11.1997, Landshut, Switzerland (KORA Bericht Nr. 3). 1998.

(13). Bukowick K.E. Truth and symbolism: Mythological perspectives of the wolf and crow: Electronic thesis or dissertation. Boston College, 2004, 61 p. URL:http://hdl.handle.net/2345/489

(14). Wolf as a symbol in the cultures of the world [Electronic resource]. URL: https://wolf.ua/ru/blog/volk-kak-simvol-v-kulturah-raznyh-narodov-mira/ (date of access: 20.01. 2026).

(15). Tylor E.B. Primitive Culture: Researches into the Development of Mythology, Philosophy, Religion, Art, and Custom. London, John Murray, 1871, 2 vols.

Mallayeva Mamura Abduraxmanovna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Hozirgi zamon rus tili” kafedrasi o‘qituvchisi; mamurmallayeva@mail.com)

ADABIYOTSHUNOSLIKDA “KICHKINA ODAM” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISH TARIXI

Annotatsiya. *Maqolada “kichkina odam” tushunchasining adabiyotshunoslikdagi nazariy asoslari va adabiy talqinlari tahlil qilinadi. Rus, ingliz va o‘zbek adabiyotlarida bu obrazning shakllanish bosqichlari, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Pushkin, Gogol, Chexov, Dostoyevskiy, Mansfield va Qahhor asarlarida “kichkina odam”ning fojiaviy taqdiri, ijtimoiy tengsizlik va insoniy fazilatlar bilan kurashi yoritiladi. Obraz adabiyotda insonparvarlik, ijtimoiy tanqid va axloqiy qadriyatlar ifodasi sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichkina odam, adabiy tip, rus realizmi, ijtimoiy tengsizlik, psixologik tahlil, estetik funksiya, G‘arb adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, insonparvarlik, axloqiy konflikt, ekzistensial iztirob, ijtimoiy ong, adabiy tipologiya.*

Маллаева Мамура Абдурахмановна (преподаватель кафедры современного русского языка Узбекского государственного университета мировых языков; mamurmallayeva@mail.com)

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЯ «МАЛЕНЬКИЙ ЧЕЛОВЕК» В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы и литературные интерпретации понятия «маленький человек» в литературоведении. Рассматриваются этапы формирования, социальные и психологические характеристики данного образа в русской, английской и узбекской*